


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

IQTISODIYOT

Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich-

“Ma'mun Universiteti” NTM “Buxgalteriya hisobi va
biznesni boshqarish” kafedrası o'qituvchisi

Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna-

“Ma'mun Universiteti” NTM Iqtisodiyot” kafedrası
katta o'qituvchisi

**MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362397>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mintaqada qulay investitsiya muhitini shakllantirish mexanizmi, shakllantirish istiqbollari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Mintaqada qulay investitsion muhitni mavjud bo'lishi investorlarni jalb qilishda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion muhit, investitsiya siyosati

Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich-

Lecturer at the Department of “Accounting and Business Management”,
Mamun University Scientific and Educational Center

Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna-

Senior Lecturer at the Department of “Economics”, Mamun University
Scientific and Educational Center

**PROSPECTS FOR IMPROVING THE FORMATION OF A FAVORABLE INVESTMENT
ENVIRONMENT IN THE REGION**

ABSTRACT

This article examines the mechanism for creating a favorable investment climate in the region, its prospects, and areas for improvement. The existence of a favorable investment climate in the region is important for attracting investors.

Key words: investment, investment climate, investment policy

Пирнафасов Сарвар Бардибоевич-

Преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет и управление бизнесом»,
Научно-образовательный центр Университет Маъмун

Саттарова Махфуза Дилшодбековна-

Старший преподаватель кафедры «Экономика»,
Научно-образовательный центр Университет Маъмун

ПЕРСПЕКТИВЫ УЛУЧШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ БЛАГОПРИЯТНОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В РЕГИОНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается механизм создания благоприятного инвестиционного климата в регионе, его перспективы и направления совершенствования. Наличие благоприятного инвестиционного климата в регионе имеет важное значение для привлечения инвесторов.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная политика

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini samarali rivojlantirish yoʻnalishi sifatida investitsiya manbalarini keng jalb qilish hisoblanadi. Buning uchun yetarli shart-sharoit va qulay investitsion muhit zarur boʻladi. Ushbu chora-tadbirlar bevosita investitsiya muhitini shakllantirish asosida taʼminlanishi lozim. Investitsiya muhiti oʻz ichiga milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini taʼminlash boʻyicha investitsiya iqtisodiy munosabatlarining majmuini oladi. Uning moddiy asosini iqtisodiyotning turli sohalari, jumladan oʻz moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga sarmoya kiritish uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan barcha turdagi investitsiya resurslari: tabiiy, texnik, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslar tashkil etadi. Investitsiya muhiti mintaqaviy iqtisodiy tizim doirasida ishlaydi va uning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Investitsiya muhitining ishlashi bevosita amortizatsiya hisobidan oddiy takror ishlab chiqarish, shuningdek asosiy vositalarning zarur oʻsishi va ularni modernizatsiya qilish jarayonlarini taʼminlaydi.

Darhaqiqat, mintaqalarning iqtisodiyot tarmoqlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun investitsiya muhitini shakllantirish va takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu borada mamlakatimizda investitsiya muhitini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan qonunning 26-moddasida investitsiyalar va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organining vazifasi sifatida investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya muhitini rivojlantirish va Oʻzbekiston Respublikasi hududidagi investitsiya faoliyatini takomillashtirish sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish va kiritish belgilangan [2]. Oʻz navbatida, qulay investitsiya muhitini shakllantirish uchun investitsiyalarni keng jalb qilish va ushbu muhitni samarali rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Investitsiya muhiti tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida olimlar, tahlilchilar va ekspertlar, shuningdek, buxgalteriya hisobi subyektlari, siyosatchilar va tadbirkorlarning doimiy diqqat-eʼtiborini oʻziga tortib keladi.

Mamlakatimizda davlat tomonidan investitsiya muhitini shakllantirishga yetarli shart-sharoit yaratish va uning ishlashini tezlashtirish va ragʻbatlantirish, shuningdek uni takomillashtirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada olib borilgan boshqa bir tadqiqotlarda xorijiy sarmoyalar tabiiy resurslarga eng boy, nisbatan qulay iqtisodiy sharoit va investitsiya muhitiga ega boʻlgan, aholini ish bilan taʼminlash va boshqa ijtimoiy muammolar kuchliroq mintaqalarga jalb etilganligi qayd etiladi [4].

Investitsiya muhitining shakllanishi uchun turli shart-sharoitlar yetarli boʻlishi lozim. Investitsiya muhiti muayyanligini bu borada faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarni umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi [5]. Bu holatda investitsiya faoliyatiga taʼsir koʻrsatuvchi ushbu omillarning oʻzaro bogʻliq majmui u yoki bu mamlakat iqtisodiyotidagi hal qiluvchi boʻgʻini boʻlib investitsion muhit hisoblanadi.

Koʻpgina mamlakatlarda investitsiya muhiti mamlakat hududlarini iqtisodiy rivojlantirishga qaratiladi. Rossiya iqtisodiyotidagi investitsiya muhiti hududiy iqtisodiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar nuqtai nazaridan qulay boʻlib koʻrinadi [6].

Investitsiya muhiti ayrim hududlar, jumladan shahar tabiiy sharoitiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Baʼzi tadqiqotlarda shahar tabiiy muhiti orqali investitsiya afzalligi oʻzgartirilganligi taʼkidlanadi [7].

Tashqi manba sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhitini baholash lozim. Bu borada Xitoy iqtisodiyoti uchun asosiy komponentlar va ma'lumotlar tahlili metodologiyasini qo'llash orqali mamlakatning tashqi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhiti baholangan [8].

Investitsiya muhitining samarali bo'lishi investorga bog'liq bo'ladi. Investorlarni afzalliklari va kutishlari shakllanadigan makroiqtisodiy muhitga bog'liq bo'lishi hamda bunga bozorning yuqori yoki past daromadli yoki iqtisodiy noaniqlik kuchaygan davrlari kirishi tadqiq qilingan [9].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Har qanday investitsion muhitni shakllantirishda tijorat tuzilmasi mavjud bo'lishining asosiy maqsadi daromad olish bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish usuli bo'lib, bu faol ravishda investitsiya kiritish bo'lib hisoblanadi. Biroq, investitsiya faqat investitsiya tahlili o'tkazilgandan keyin amalga oshirilishi lozim. Bu esa tanlangan investitsiya usulining maqsadga muvofiqligini aniqlashga imkon beradi. Bu borada mamlakat mintaqalarida samarali investitsion muhitni shakllantirish uchun chuqur investitsion tahlil amalga oshirilishi lozim. Investitsion tahlil – investitsion loyihani amalga oshirishga qaratilgan samarali biznes-rejani shakllantirish va investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi darajasini aniqlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu orqali tanlangan investitsiya usulini asoslash imkoni yaratiladi.

Mintaqada investitsion muhitni yaratish va uni ta'sirini kuchaytirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy masalalar K.Y.Lee, M.Porter, R.S.Kaplan, D.Norton, A.Tompson, [13] va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Investitsiya muhiti uning joziborligi bilan bog'liq bo'lishi lozim. Bu borada ba'zi tadqiqotlarda investitsion muhitni sog'lomligi va jozibadorligini davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks etuvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholash mumkinligi ta'kidlangan [14].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakat mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti aholi daromadlarini oshishi va turmush sharoitini yaxshilanishi milliy iqtisodiyot soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag'lari hajmi va tarkibiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, mintaqalarda investitsiya mablag'larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada davlat mamlakatni xorijiy sarmoyadorlar uchun yanada jozibador qilish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bu borada mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ta'minlash vositasi sifatida xususiylashtirish muhim yo'nalish sifatida qaratiladi.

Mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilgan. Ya'ni, O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb etish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud [10]:

- siyosiy barqarorlik;
- xususiy mulk va raqobatni himoyalaydigan qonunchilik bazasining shakllangani;
- investitsiya jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmaning barpo etilgani;
- mamlakatning qulay geografik joylashuvi;
- agrosanoat sektorini rivojlantirish salohiyatining yuqoriligi va mamlakatning mineral-xom ashyo resurslariga boyligi;
- yuqori malakaga ega bo'lgan mehnat resurslarining mavjudligi;
- savdo uchun ichki bozor hajmining yetarli darajada kengligi.

Shuningdek, mintaqalarning investitsiya muhitini takomillashtirish uchun strategik dasturlarni amalga oshirish bo'yicha investitsiya loyihalari samaradorligini baholab borish lozim. Bu orqali strategik dasturlar uchun investitsiya loyihalari samaradorligini baholash mexanizmi takomillashtiriladi. Shularni hisobga olib, mamlakatimizga ilmiy-tadqiqot yondashuvi asosida iqtisodiyot tarmoqlariga sarmoya qilinadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyati natijalari yoki bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'lum faoliyatsiz boshqaruv institutlari ham investitsiya muhitini shakllantirishga o'z ta'sirini o'tkazib, ushbu holat bevosita mintaqalar uchun farovonlik darajasida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan ushbu institutlarning investitsiya loyihalarini jamoatchilik muhokamasida sheriklik nuqtai nazaridan faol ishtirok etishi bevosita investitsiya muhitini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Olib borilgan tahlillar asosida Xorazm viloyati hududlarining investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi asoslandi. Natijada, biz

mintaqada investitsiya faoliyatini “real investitsiyalar muhiti”, “moliyaviy investitsiyalar muhiti” va “innovatsion-investitsiyalar muhiti” kabi shakllar orqali baholash usullarini taklif qilamiz (1-jadval):

1-jadval.

Mintaqa hududlarida shakllanadigan investitsiya muhitining asosiy tarkibiy yo‘nalishlari

№	Hududlar nomi	Shakllanadigan investitsiyalar muhitining tarkibiy yo‘nalishlari		
		real investitsiyalar muhiti	moliyaviy investitsiyalar muhiti	innovatsion-investitsiyalar muhiti
1	Urganch shahar	Turli shakldagi korxonalar	Banklar, sug‘urta, investitsiya va lizing korxonalari	Texnoparklar
2	Xiva shahar	Yengil sanoat korxonalari va mehmonxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Klasterlar
3	Bog‘ot tumani	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Agroklasterlar
4	Gurlan tumani	Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Klasterlar tarmoqlari
5	Qo‘shko‘pir tumani	Yengil sanoat korxonalari va mehmonxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Klasterlar
6	Urganch tumani	Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Yirik klaster tarmoqlari
7	Hazorasp tumani	Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar	Banklar, sug‘urta korxonalari, bozorlar	Yirik klaster tarmoqlari
8	Xonqa tumani	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Klasterlar
9	Xiva tumani	Korxonalar va mehmonxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Klasterlar
10	Shovot tumani	Yengil sanoat korxonalari	Banklar va sug‘urta korxonalari	Klasterlar
11	Yangiariq tumani	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Klasterlar
12	Yangibozor tumani	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar	Banklar va sug‘urta korxonalari	Agroklasterlar
13	Tuproqqal’a tumani	Sanoat zonalari	Banklar, investitsiya va sug‘urta kompaniyalari	Maxsus sanoat zonasi

Ushbu jadvalga asosan, viloyatimiz hududlarida investitsiya faoliyatini “real investitsiyalar muhiti”, “moliyaviy investitsiyalar muhiti” va “innovatsion-investitsiyalar muhiti” kabi shakllarda amalga oshirish moddiy mahsulotlar yaratish, pul mablag‘laridan samarali foydalanish va yangi mahsulotlarni samarali tashkil etishga imkon beradi.

XULOSA

Mintaqada qulay investitsion muhitni shakllantirish uchun uni amalga oshirish jarayonini takomillashtirish lozim. Buning uchun mintaqalarning iqtisodiyot tarmoqlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadga muvofiq. Investitsiya muhiti uning joziborligini yuzaga chiqaradi. Bunday holatda investitsiya muhitining shakllanishi uchun turli shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Hamda investitsiya muhitining samarali bo'lishi bevosita investorga bog'liq bo'ladi. Bu orqali aholi daromadlarini oshirish va turmush sharoitini yaxshilashga eshiriladi. Investitsiya muhitini tahlil qilish jarayon sifatida iqtisodiyot holatini o'rganishda namoyon bo'ladi. Innovatsion yondashuvlar asosida investitsion muhitni takomillashtirish unsurlariga e'tibor qaratiladi. Bu borada investitsiya muhitini shakllantirish va takomillashtirishda qator omillarni hisobga olish lozim. Investitsiya muhitini amalga oshirishdagi tahlilning asosiy maqsadi loyiha maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash bilan belgilanadi. Investitsion muhitni takomillashtirishda tadbirkorlik faoliyati qulay shart-sharoit yaratishdan iborat bo'ladi.

Сноски / Iqtiboslar/ References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/4664142>
3. Ziyayev T.M., Qobilov A.O., Yoqub D.T., Zufarova M.Q. Qulay investitsion muhit va faol investitsion siyosat – barqaror iqtisodiy o'sish omili. // Iqtisod va moliya, 2019, 10(130). – 56 b.
4. Bakiyeva I.A. Qulay investitsion muhit shakllantirish va unga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali, №4, avgust, 2019. - 5 b.
5. Околышев Д.А., Околышева И.А. Разработка предложений совершенствования инвестиционной среды на основе трехсторонних отношений. // Научный альманах, 2017, №9-1(35). - с. 70.
6. Zhao S., Shao Q., Zhou X. Greenbelt investment with temporal preference in uncertain environments. // Sustainable Cities and Society, Volume96, September 2023, 104675. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S221067072300286X>
7. Xue R., Liu H., Bruyne K.De, Hynes K., Shi Y. Evaluation of outward foreign direct investment environment in China. // Transnational corporations review, 2021 <https://doi.org/10.1080/19186444.2022.2053425>. – pp. 44-60.
8. Bachmann K., Meer J., Krauss A. Investment motives and performance expectations of impact investors. // Journal of Behavioral and Experimental Finance, 42 (2024), 100911. - pp.1-9.
9. Mahmudov S.B. Investitsiyalarni moliyalashtirishda investitsion muhitini takomillashtirish. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust, 2020-yil, №00048. - 100 b.
10. Мухамаджанов Ш.С. Направления по совершенствованию привлекательности инвестиционной среды в регионах Узбекистана. // Экономика и социум: современные модели развития. – 2022. – Том 12. – № 4. – С. 271-282. – DOI: 10.18334/ecsoc.12.4.117307
11. Пацук О.В. Инновационная направленность инвестиций. // Креативная экономика, 2011. Том5, №10. - с. 21-26
12. Lee K.Y. From Third World to First: The Singapore Story 1965-2000. Sinpapore: Singapore Press Holdings, 2000., Портер М. Конкуренция.: Пер. с англ. - М.: Издательский дом "Вильямс", 2003. - 608 с.: ил. - Парал. тит англ. Kaplan R.S., Norton D.P. The strategy-focused organization: How balanced scorecard companies thrive in the new business environment [Text] / R.S. Kaplan. - Harvard Business School Press, 2001, Томпсон А.А.

- Стратегический менеджмент [Текст] / Пер. с англ. - М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1998. - 576 с.,
13. Zayniddinov R.X. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №5, sentabr-oktabr, 2020-yil (№ 00049). - 96 b. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

Internet saytlari:

- a. <https://stat.uz>
- b. <https://www.lex.uz>
- c. www.google.com
- d. www.yandex.com

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000